



Internet resources for promoting oral language development in children within preschool educational settings

Fotima NARMATOVA¹, Sh.A. ABDULLAEVA²

Gulistan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received February 2025

Received in revised form
28 February 2025

Accepted 20 March 2025

Available online

15 April 2025

Keywords:

speech,
education,
technology,
internet,
analyzer,
multimedia,
virtual excursion,
computer,
motor skills,
vocabulary.

ABSTRACT

It is well known that speech is one of the key factors in the formation of a person's identity and a primary indicator of their development process in understanding the world. In recent decades, significant changes have occurred in the structure of the education system. In this context, two interconnected processes became clearly evident: alongside the development of science and technology, our language culture and speech have also undergone transformations. The concepts and words related to computers, mobile phones, televisions, household appliances, and the internet have entered our lives.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss3/S-pp24-28>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda qo'l keladigan Internet materiallari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

nutq,
ta'lim,
texnika,
internet,
analizator,
multimedia,
virtual ekskursiya,
kompyuter,
motorika,
lug'at.

Ma'lumki, nutq inson shaxsi shakllanishida uning rivojlanish darajasining asosiy shartlaridan biri, olamni anglash jarayonidagi eng asosiy ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Keyingi o'n yilliklarda ta'lim tizimi tuzilmasida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bunda ikki o'zaro bog'liq jarayon yaqqol ko'zga tashlandi: fan – texnika taraqqiyoti bilan birga, til madaniyati, nutqimiz ham o'zgardi. Hayotimizga kompyuter, mobil telefoni, televizor va boshqa maishiy texnika, Internet kabi tushuncha va so'zlar kirib keldi.

¹ PhD student, Gulistan State University.

² Scientific supervisor. Doctor of Pedagogical Sciences, Gulistan State University.

Интернет-материалы, способствующие развитию устной речи детей в организациях дошкольного образования

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

речь,
образование,
техника,
интернет,
анализатор,
мультимедиа,
виртуальная экскурсия,
компьютер,
моторика,
словарь.

Известно, что речь является одним из основных факторов формирования личности человека и главным показателем его развития в процессе осознания мира. В последние десятилетия произошли резкие изменения в структуре образовательной системы. В этом контексте явно проявились два взаимосвязанных процесса: вместе с развитием науки и техники изменились наша языковая культура и речь. В нашу жизнь вошли такие понятия и слова, как компьютер, мобильный телефон, телевизор, другая бытовая техника и Интернет.

Mutaxassislarning fikricha, insonning eshitish a'zolariga nisbatan ko'rish a'zolari yordamida qabul qilingan ma'lumotni besh marotaba ko'p eslab qolish mumkin. Sababi – eshitish a'zolariga nisbatan ko'rish a'zolaridan olinayotgan ma'lumotlar qayta kodlashtirilmay to'g'ridan-to'g'ri xotiraga o'tadi va saqlanadi.

Maktabgacha yoshdagi 3-5 yoshdagi bolalarni nutqini rivojlantirishda, multimedia vositalaridan ya'ni slaydlar, didaktik o'yinlardan foydalanish juda katta ahamiyatga ega. Negaki, multimedia vositalaridan bola foydalanganida uning mayda qo'l motorikasi harakatlanadi, bu harakat orqali bolaning bosh miyasidagi ko'rish, eshitish kabi analizatorlari yaxshi rivojlanadi. Buning natijasida esa uning nutqi, aqliy qobiliyati takomillashadi, har xil rang-barang rasmlar, tasvirlarning harakatini ko'rish va eshitish orqali esa so'z boyligi ham oshadi.

Tarbiyachi bir xillikdan cheklanishi, har doim qiziqarli faoliyatlar o'tkazishi uchun harakat qilmog'i zarur. Agar, dastur reja asosida muzeyga, ko'ngil ochar bog'larga sayohat o'tkazish buyurilgan bo'lsa-yu, lekin ma'lum bir sabablar bilan bu ish amalga oshmay qolsa, bu jarayonda ham multimedia vositasi yordamga kelishi shubxasiz. Ya'ni, ushbu sayohatni amalga oshirish uchun bolalar bilan online sayohat uyushtiriladi. Bu sayohat 3D, 5D, 7D formatlarda, xuddi ana o'sha olamga tushgandek harakat qilib ko'rishlari mumkin. Bu hech bir muammosiz amalga oshiriladi. Faqatgina tarbiyachidan tashkilotchilik, izlanuvchanlik talab etiladi.

MTT bolalari uchun tayyorlanadigan multimedia vositalari ovozli, musiqali, harakatlanuvchi, rangli, multifikatsiyali va jozibali bo'lishi shart. Quyida MTTlarida multimedia vositalarining ba'zi turlarini tayyorlash va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari ustida to'xtalamiz. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi tomonidan ta'lim tarbiya jarayonida, o'quv faoliyatlarida kompyuter dasturlaridan tashqari, bolalar nutqini rivojlantirish, tasavvurlarini kengaytirish va lug'at boyligini oshirish uchun internet materiallari orqali, bir qancha ijodiy ishlanmalardan ham foydalaniladi. Masalan, hayoliy sayohat ya'ni virtual ekskursiya.

Virtual ekskursiya- bu haqiqiy ekskursiyadan real hayot obyektlarini virtual sayohat uyushtirish, tashrif buyurish mumkin bo'lmagan joylar to'g'risida vizual ma'lumot olish, vaqt va pul tejash imkonini beradi. Virtual ekskursiyalardan foydalanish

bolalarning mavjud vositalardan foydalangan holda ma'lumot olishga bo'lgan ehtiyojlarini shakllantiradi, o'rganish uchun motivatsiyani oshiradi shu bilan birga tanlangan mavzu mazmun-mohiyatini tushunishga, tasavvurlari orqali his qilishga, estetik zavq olishga imkon yaratadi.

Ekskursiyalar mavzusi bolaning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, kalendar va tematik rejalashtirishni hisobga olgan holda tanlanadi. Ekskursiyani o'tkazishdan oldin bolalarga tanlangan mavzu yuzasidan atroflicha ma'lumot beriladi, tarbiyachi tomonidan ekskursiya obyektlari batafsil o'rganiladi, video ketma-ketlik asosida ekskursiya yo'nalishi tuziladi, ekskursiya matni (sharhi) tayyorlanadi va matn asosida „yo'lboshchi"ning ovozi yozib olingan audio yozuv sifatida taqdim etilishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan „Temuriylar tarixi muzeyi" virtual ekskursiya orqali Amir Temur haqida tasavvurlari, o'sha davrga oid narsalar, kiyinish uslublari haqida qisqacha tasavvurga ega bo'ladilar, tarbiyachi mustahkamlash uchun quyidagi savol va topshiriqlarni beradi:

1. Bolajonlar, aytinglarchi, biz sayohatni kunning qaysi qismida uyushtirdik? Sayohat paytidagi havo harorati qanday?

2. Muzeyga kirishingiz bilan nimalar sizning e'tiboringizni tortdi? E'toboringizni tortgan narsalarning ranglari qanday?

3. Muzey devorlarida nimalar, qanday kasb egalari tasvirlangan? Ularning ichida Amir Temurni kim ko'ra oldi? Nima sababdan aynan uni Amir Temur deb o'yladingiz?

4. Qani kim menga Amir Temurning ko'rinishini, kiyimlarini tasvirlab beradi?

5. Aytinglarchi bolajonlar, muzeydagi eshiklar qanday ko'rinishda, nimadan ishlangan deb o'ylaysiz?

6. Nima uchun 1-qavatda ayrim joylarda to'siq bilan ba'zi narsalar to'sib qo'yilgan, ana o'sha to'siqlarni olib tashlasa nima bo'ladi-yu, olib tashlamasa nima bo'ladi?

7. Bolajonlar, sizlarga topshiriq, siz ko'rgan muzeyingiz va undagi narsalarni qo'lingizdan kelgancha oq qog'zoga chizasiz va menga har biringiz izohlab berasiz.

Virtual ekskursiya o'tkazish shakllari:

1. Power Point dasturidan foydalangan holda multimedia taqdimotlari („O'zbek rassomlarining rasmlari", „Milliy o'yinchoqlar" va boshqalar)

2. Video ekskursiyalar (O'zbekiston poytaxti – Toshkent shahri" ekskursiyalari, „Qadimiy shaharlar", „O'zbekiston muzeylari" va boshqalar)

3. Skype dasturi yordamida interaktiv muloqot, kasb-hunarlarini bilish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatini, kasblar to'g'risida tasavvurlarini, tushunchalarini boyitishga yordam beradigan voqea shaklini ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Bolalar otalarining ish joylariga virtual ekskursiya qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. („Men ishda onam (dadam) bilan birgaman" loyihasi), bolalarni boshqa millat bolalari hayoti bilan tanishtirish („Birgalikda yashash juda zo'r!" loyihasi), o'lkashunoslik muzeyi haqida g'oyalarni shakllantirish va h.k.

Bundan tashqari, internet orqali yana bir bolalar uchun qiziqarli material bu – multfilmdir. Hozirda har xil turdagi, turli xil mavzudagi multfilmlar judayam ko'payib ketgan. Tarbiyachi yoki ota-ona bolalar ta'lim-tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan multfilmlarni tanlay olishi ham muhim, albatta. Mana shunday multfilmlardan biri „Yo'l va bolalar" multfilmidir. Bu multfilm „Ilk qadam o'quv dasturi" orqali tasdiqlangan mavzular ro'yxatidagi „Yo'l harakati qoidalari haqida tushuncha" degan mavzusiga tayyor

ta'lim-tarbiyaviy material hisoblanadi va 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ya'ni barcha guruh bolalarning yosh xususiyatlariga har tomonlama mos keladigan materialdir. Bolalar filmni ko'rib bo'lgach, ularga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Yaxshilab qarangchi, quyoncha volosipedda qayoqqa ketyapti? Buni siz nimadan bildingiz?

2. Yo'lning ikki tarafiga diqqat qiling. U yerda nimalar ko'ryapsiz? Aytingchi, filmda qaysi fasl tasvirlangan, siz buni qanday bildingiz?

3. Quyonchaning qo'shig'ini diqqat bilan eshiting. U nima haqda kuylayapti?

4. U xursandmi, xafami? Siz buni qanday bildingiz?

5. Quyon bilan bo'rining kiyinishiga diqqat qiling. Ular qaysi faslga mos kiyinishgan?

6. Bo'rining qo'shig'ini diqqat bilan eshiting. „Bo'z bo'ri“ degani nima degani, kim biladi?

7. Bo'rining turishiga diqqat qiling: u qanday turibdi? Uning turishidan uni yaxshi bo'ri deyish mumkinmi?

8. Bo'rining qaysi ishi sizga yoqmadi? Nima uchun yoqmadi?

9. Uning qaysi ishlari va gaplari yo'l qoidalariga to'g'ri kelmaydi, sizningcha?

10. Kim menga yo'l qoidasini aytib beradi? Zebra qayerlarda bo'lar ekan?

11. Bolajonlar multfilm so'nggida qanday xulosa chiqarishimiz mumkin?

12. Qonun-qoidalarga amal qilmaganlar qanday hollarga tushib qolishlari mumkin ekan?

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga beriladigan bilimlarni ularning yoshiga va ta'lim dasturiga mosligi e'tiborga olingan holda, multimedia texnologiyasi asosida tashkil etish va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhlari o'quv rejasi asosida olib borish maqsadga muvofiqdir.

Yana bir foydali bo'lgan multimedia materiallaridan biri bo'lgan, maktabga tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilari nutqini o'stirishda Sirdaro viloyati Boyovut tumani 30-sonli DMTT direktori Boboyeva Zuhra tomonidan yaratilgan „Alifboning musiqiy talqin“dan ham samarali foydalanish mumkin. Bu ham maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari uchun judayam qiziqarli va savod chiqarishda samarali yangilik bo'ladi. Bu musiqiy talqinda kuylangan o'zbek alifbosi, bolalarning aqliy va ruhiy rivojlanishiga ham rang-barangligiga ham yoqimli musiqani his qilishga, shu bilan birga, harflarni ortiqcha zo'riqishlarsiz yodlab olishga undaydi. Bilim olishga muhabbat bilan yondashishga asos bo'ladi.

Musiqali alifboni o'rganish maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarida bor yo'g'i 2–3 kun talab etadi. Natijada o'zbek alifbosi o'z tartibi bilan bir umrga bolalar xotirasida o'chmas bo'lib muhrlandi. Quyida alifbo qo'shig'ining matnini havola etiladi:

A, b, d, e, f, g, h, i,

J, k, l, m, n, o, p,

Q, r, s, t, u, v, x,

Y, z, o', g', sh, ch, ng,

Hamda tutuq belgisi (').

Yigirma to'qqiz harflarmiz,

Hamda bitta belgimiz.

Yodda saqlab qolsangiz

Ishonchimiz oqlaysiz!

Biz quvnoq alifbomiz!

Qo'shiq musiqasi "re major" tonalligida yozilgan bo'lib, bolalarning yosh va ovoz xususiyatiga mos keladi. Bolalar qo'shiqni kuylashda qiyinchiliklarga duch kelishmaydi. Qo'shiqning kuychanligi kayfiyatni ko'taradi va natijada yana va yana kuylash istagini uyg'otadi.

Umuman olganda maktabgacha yoshdagi bolalarning har bir predmetga, sohalarga, atrof-olamdagi jamiki narsalarga qiziqishlari shu qadar baland bo'ladiki, ularni shu kabi qiziqarli dasturlardan maqsadga muvofiq tarzda foydalanib bilishga yo'naltirish tarbiyachining ijodkorligiga bogliqdir.

Shunday qilib, maktabgacha tayyorlov guruhleri bolalarini savodga o'rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanish mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, bolaning xotiraga olish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bilan maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy tomondan ham rivojlanadi, ya'ni ular multimediali faoliyat jarayonida va undan tashqari tasavvur olami kengayadi, ovozlarning, ranglarning, shakllar va boshqa predmetlarning farqiga borishni, animatsiyali dasturlar orqali esa ana shu predmetlarning vazifalarini bilib olishlari oson bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ushbu multimedia materiallari yordamida bolalarning savollarga javob berish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning tarixiy obidalariga, buyuk siymolarimizga, atrof-olamdagi barcha narsalarni estetik zavq bilan tomosha qilishga undaydi; yo'l qoidasi haqida bilimlari oshadi, yil fasllari, ularga xos bo'lgan xususiyatlar haqida tushunchalari mustahkamlanadi, yomon va yaxshi fe'lli insonlar haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Shu savollarga javob berish orqali bolalarning xotirasi mustahkamlanib, ulaning nutqi o'sadi, lug'at boyligi oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adilova S. Multimedia va ularni ta'lim jarayonida qo'llash // Pedagogik ta'lim-T.: TDPU, 2001. № 2. -B. 20-21
2. Белошистая А.В. Математическое развитие ребёнка в системе дошкольного и начального образования. Автореф. дисс. ... докт. пед. наук. -М.: 2004. -43с
3. <https://www.youtube.com/watch?v=jcVqTXFpAJA>
4. <https://www.uzguest.uz/2020/08/26/hello-world/>
5. https://youtu.be/k11AmTFc-ok?si=ZFjIU1vKhZqr_XjM